

7-dars. Ko'p xonali sonlar



1. Sonlarni ulardagi **raqamlar soniga** qarab uch guruhga ajrating. Bu guruhlar qanday nomlanadi? Har bir sonda nechta yuzlik, o'nlik va birlik bor?

76

894

3

17

225

5

O'qish qulay bo'lishi uchun ko'p xonali sonlar **sinflarga** – o'ngdan chapga qarab uchta raqamdan iborat guruhlariga bo'linadi.

Har bir sinfning o'z nomi bor.

Eng kichik sinf – **birlar sinfi**, keyingisi – **minglar sinfi**.

158 720
minglar sinfi birlar sinfi

158 720 – bir yuz ellik sakkiz ming yetti yuz yigirma

6 104 – olti ming bir yuz to'rt

Har bir sinf uchta xonadan iborat.

minglar sinfi			birlar sinfi		
yuz minglar	o'n minglar	minglar	yuzlar	o'nlar	birlar
1	5	8	7	2	0



2. Yozilgan sonlarni o'qing. Ularda nechta xona bor?

968.372

103.210

542.207

85.161

3.220

407.235

737.406

611.995

42.812

5.603



3. Sonlarni **raqamlar bilan** yozing:

a) 65 ta minglik va 567 ta birlik;

b) 1 ta minglik va 355 ta birlik;

d) 105 ta minglik va 293 ta birlik;

e) 380 ta minglik va 607 ta birlik;

f) 70 ta minglik va 400 ta birlik;

g) 316 ta minglik va 151 ta birlik.

Har bir sonning **xonalarini** ayting.



4. Muzeyda 235 ta rasm to'plangan. Ulardan 47 tasi peyzaj, 98 tasi portret, qolganlari esa natyurmort. Muzeyda nechta natyurmort bor?



5. **Ustun ko'rinishida** hisoblang.

$$225 + 168$$

$$502 - 145$$

$$193 + 208$$


$$780 - 137$$

$$652 + 228$$

$$541 - 417$$



6. I. V. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi haftasiga 6 kun, soat **9:00** dan **17:00** gacha ishlaydi. Muzey bir haftada jami nechta soat ishlaydi?



7. Rasmlar ko'rgazmasiga bir nechta rassom 50 ta rasm taqdim qildi. Har bir rassom ko'rgazmaga kamida bitta rasm taqdim etdi. Barcha rassomlarning rasmlari soni turlicha edi. Bu guruhda ko'pi bilan nechta rassom bo'lishi mumkin?



8. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtiring va zamonaviy qoraqalpoq adabiy tiliga asos solgan adibning ismini bilib oling.

A $700 - 276 - 383$

E $543 + 107 - 615$

B $6 \cdot 4 + 3 \cdot 8$

R $45 : 5 + 72 : 9$

D $(603 - 594) \cdot 3$

Q $6 \cdot 3 + 4 \cdot 7$

48 35 17 27 41 46



9. Matematika olimpiadasida 52 nafar o'quvchi qatnashdi, ulardan 33 nafari o'g'il bola. Olimpiadada kimlar ko'p va qancha ko'p qatnashgan, o'g'il bolalarmi yoki qizlarmi?

